

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.A.Jo'rayeva	
Safarnomaning paydo bo'lishi va janr sifatida shakllanishi	5
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla Sher lirikasida formal an'analar	8
S.A.Odilova	
Badiiy asarda ikkinchi darajali personajlar talqini	12
B.N.Isakova	
O'tkir Hoshimov va Jek London ijodida mavzular ko'lami qiyosiy tahlili	15
Sh.R.Maxamadjonova	
Adabiyotda aforizm tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	19
M.S.A'zamjonova	
Kitobxon kodi: badiiy asarda psixologizm	22
G.Xaydarova	
"Ona lochin vidosi" romanida kolliziya konflikt	26
M.Б.Ботирова	
XX asr o'zbek adabiyotida psixologik taxilning o'ziga xos xususiyatlari	28
A.Baba	
Comparison of eastern and western variants of the <i>Koroglu</i> epic	31

TILSHUNOSLIK

I.M.Azimov	
Qayum ramazon va uning "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidolari" risolasi xususida	37
M.F.Yo'ldasheva	
Jek London asarlari tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi	43
U.T.Muratbaeva	
Lexical and semantic features of the expression of ethical concepts in the karakalpak language	50
S.B.Hafizov	
The semantic network of "head" in english and uzbek based on lexical field comparison	54
R.T.O'rinboyeva	
Qo'shrabot tumani shevasining fonetik xususiyatlari	59
A.B.Vosiljonov	
Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslari	63
M.V.Ahmadova	
Syllable rhythm and prosody: the theory of classification of languages by rhythm and the manifestation of isochrony in the poetic system	68
M.N.Najmiddinova	
Linguopragmatic analysis of phraseological units and idioms relating to the concept of hospitality in english and uzbek	73
N.A.Beknazarova, M.Y.Madiyeva	
The definition and key components of communicative competence in language learning	85
X.A.Sarimsokov	
Sport sharhlarini asosini tashkil qiluvchi leksik birliklarning diaxron tadqiqi	88
S.A.Raxmonberdiyeva	
Qurilish sohasiga oid ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning lingvistik tahlili	93
X.A.Asqaraliyeva	
Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalar	96
H.X.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil	100



UO'K: 8.80.81.7.9.903

SPORT SHARHLARINI ASOSINI TASHKIL QILUVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING
DIAXRON TADQIQIDIACHRONIC STUDY OF LEXICAL UNITS THAT FORM THE BASIS OF SPORTS
COMMENTARYДИАХРОНИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ,
СОСТАВЛЯЮЩИЕ ОСНОВУ СПОРТИВНОГО КОММЕНТАРИЯSarimsokov Xurshid Abdimalikovich 

O'zbekiston Milliy universiteti, filologiya fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada sport sharhlarida qo'llaniladigan leksik birliklarning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari diaxron yondashuv asosida tadqiq etiladi. Sport terminologik maydonining vujudga kelishi, uning muloqotdagi o'rni, xalq og'zaki ijodida va qadimgi lug'aviy manbalarda aks etgan sportga oid leksik birliklar tahlil qilinadi. Jumladan, "Devonu lug'otit turk" va "At-tuhfa" asarlaridagi sportga oid so'zlar, xalq dostonlaridagi sport sinovlari, hamda XX asrda yaratilgan sport lug'atlari misolida o'zbek sport terminologiyasining tarixiy taraqqiyoti yoritiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi sportga oid birliklarning sotsial va siyosiy tuzumlar bilan bog'liqlikdagi tafovutlari ham tahlil qilinadi.

Аннотация

Статья посвящена диахронному исследованию лексических единиц, лежащих в основе спортивных комментариев. Рассматриваются формирование и развитие терминологического поля спорта, отражение спортивной лексики в народном устном творчестве и древних словарных источниках, таких как «Девону луготит турк» и «Ат-тухфа». Анализируются примеры спортивных терминов в узбекских эпосах, а также из первых специализированных словарей XX века. Отдельное внимание уделяется сравнению английской и узбекской спортивной лексики, выявлению различий, обусловленных историческим и социальным контекстом их развития.

Abstract

This article presents a diachronic study of lexical units that form the foundation of sports commentary. It explores the development of sports terminology, its presence in oral folk literature and historical lexicographic sources such as "Devonu lug'otit turk" and "At-tuhfa." The analysis includes examples from Uzbek epics and early sports dictionaries, illustrating how physical activities were encoded in language. The article also compares the evolution of sports-related terminology in Uzbek and English, highlighting the influence of sociopolitical systems and cultural contexts on the use and standardization of terms.

Kalit so'zlar: sport sharhi, terminologik maydon, leksik birlik, doston, tarixiy lug'atlar, Devonu lug'otit turk, At-tuhfa, diaxron tahlil, sport terminlari, o'zbek va ingliz tili.

Ключевые слова: спортивный комментарий, терминологическое поле, лексическая единица, эпос, исторические словари, Devonu lugalit turk, At-tuhfa, диахронный анализ, спортивная терминология, узбекский и английский язык.

Key words: sports commentary, terminological field, lexical unit, epic, historical dictionaries, Devonu lug'otit turk, At-tuhfa, diachronic analysis, sports terminology, Uzbek and English languages.

KIRISH

Ko'plab olimlar ma'lum soha haqida gap ketganda *terminologik maydon* tushunchasiga to'xtalib o'tishadi. Chunki har bir leksik birlik o'zi ifodalangan sohaning terminologik maydoni ichida vujudga keladi, rivojlanadi va yashab qoladi. Ushbu doira ko'lamida vujudga kelgan leksik birlik o'zining barcha lisoniy belgilariga mana shu doira ichida ega bo'ladi va mana shu doira ichida ularni namoyon eta oladi. Natijada, sohaning o'zigagina xos birliklari terminlar vujudga keladi. Ushbu maydon, aynan, o'zining o'zigagina xos birliklar bilan sun'iy tarzda chegaralanadi, unga aloqasi bo'lmagan til birliklaridan uning tarkibiga kirishidan ataylab muhofaza qilinadi, chunki muayyan maydonga mansublik xoslangan (terminologik) birliklarning oddiy leksik birliklardan ajratib turuvchi eng muhim belgi hisoblanadi. Xoslangan (terminologik) birlik uchun maydon –

TILSHUNOSLIK

muayyan soha birliklarini jamlanuvchi uchun makon hamdir. Ular ifodalanishiga ko'ra, ma'lum fan yoki faoliyat, xususan, sharh faoliyati doirasida uyg'unlashadi va o'zining lingvistik xususiyatlari bilan soha taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunga qadar sharhlarga doir tadqiqotlarni lingvistik jihatdan amalga oshirish mamlakatimiz va xorijiy tilshunoslikda o'ziga xos dolzarb bo'lib kelmoqda. Ushbu jarayon bir tomondan fan va texnikaning jadallik bilan rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy axborot hajmining ortishi natijasida terminologik leksikaning tobora kengayib borish va uni qo'llash jarayoni bilan izohlanasa, ikkinchi tomondan leksik jihatdan mavjud lisoniy birliklarni qo'llanishidan avval etimologik, tarixiy ilmiy o'rganish ehtiyojini ham yuzaga keltiradi. Mazkur ikki jarayon ham tilshunoslar zimmasidagi masala deb atash maqsadga muvofiq.

METODLAR

Sport sharhining xoslovchi leksik birliklari bu sportga oid maxsus terminlar, iboralar va qisqartmalardir. Bu leksik birliklar sport sharhlarida keng qo'llanilib, sport turlariga xos bo'lgan hodisalarni, qoidalarni, strategiyalarni va natijalarni aniq va qisqa tasvirlashga yordam beradi. Ularning nazariy va amaliy o'ziga xosligi bo'lishi maqsadga muvofiq. **Nazariy jihatdan:** a) *aniqlik va tushunarlik* - mazkur birliklar sport hodisalarini aniq tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu sport tahlillarida noto'g'ri tushunishlarning oldini olishga yordam beradi; b) *standartlashtirish* - soha terminlarining bir xil bo'lishi, sport sharhlarida va tahlillarida yagona tilni yaratishga yordam beradi. Bu har bir sport turi uchun umumiy tushunchalarni osonroq qabul qilish imkonini beradi; c) *ta'lim va o'rganish* - sport nazariyasini o'rganish jarayonida terminlar sport qoidalarini, strategiyalarini va texnikalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Amaliy ahamiyati: a) *samarali muloqotga kirishish* - Sport sharhlovchilari, murabbiylar va o'yinchilar uchun xoslovchi birliklar muloqotni samarali qilishda juda muhim. Bu ularning bir-birlarini tez va aniq tushunishlariga yordam beradi; b) *o'yinlarni tahlil qilish va sharhlash* - sport sharhlovchilari va tahlilchilari uchun ushbu birliklar o'yinlarni tahlil qilishda va sharhlashda muhim rol o'ynaydi. Bu ularga voqealarni va hatto murabbiy strategiyalarni ham tez, aniq tasvirlash imkonini beradi; c) *jalb qilish* - sport sharhlovchilarining sportga xos birliklarda foydalangan holda qiziqarli va jonli sharhlar berishi, tomoshabinlarni jalb qilishga va ularning sport sohasiga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: **sport sohasiga doir leksik birliklar tarixi tadqiqi qanchalik ahamiyatli?**

Tarixiy leksik birliklarning tadqiqi muayyan millatga tegishli sport an'analari va madaniyatini saqlab qolish va avloddan avlodga mazkur ma'naviy merosni yetkazishga yordam beradi; sport sohasi, uning qoidalari va jamiyat umumiste'molidagi ma'nosi qanday o'zgarganligini kuzatish imkonini beradi; sharhlovchilar tarixiy leksik birliklardan ta'lim maqsadlarida foydalanishlari, tomoshabinlarga turli sport turlarining kelib chiqishi va rivojlanishi haqida ko'proq ma'lumot olishlariga yordam beradi; leksik birliklarni kelib chiqishi va rivojlanishi ko'pincha madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarni tasvirlaydi. Sharhlovchilar ma'lum so'zlarning qanday va nima uchun paydo bo'lganligini va ularning ma'nosi qanday rivojlanganligini tadqiqi etishi imkonini beradi; tarixiy matnlarda ko'pincha mavjud bo'lmagan yoki ma'nosi o'zgargan ismlar, unvonlar va lavozimlar mavjud. Sharhlar davomiyligida bu kabi birliklar haqida qo'shimcha ma'lumot berishi mumkin; din va marosim bilan bog'liq leksik birliklar ma'nosi to'g'ri izohli, tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, ona zaminimizda dunyo fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslar yetishib chiqqan. VIII–IX asrlardayoq bizning yurtimizda "Baytu al-hikma" (Donishmandlar uyi) deb atalmish fanlar akademiyasi, oradan biroz vaqt o'tib, 1010 yilda Ma'mun akademiyasi tashkil etilgan. Mazkur akademiyada butun dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk kashfiyotlar qilingan. Biroq bobokalonlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy va madaniy merosni hamma vaqt ham to'liq va asl holda saqlab qolishning imkoni bo'lmagan. Natijada barcha sohalar singari tilshunoslik sohasi rivojida ham o'ziga xos oqsashlar kuzatildi. Taajjubki, aksar sohalarning ilmiy-nazariy bilimlari Yevropa olimlari nomlari bilan bog'lab kelindi. Bugungi kun esa bizga ulkan meroslarni tadqiq qilish imkoniyatini berdi. Sharhning sportga xosligini belgilab beruvchi leksik birliklarning shakllanishi va tarkib topish tarixini, ularning mazmun-mohiyati, o'tmishda qanday qaysi sohalarda qo'llanilganligi ilmiy manbalar asosida o'rganib, ilmiy jihatdan tadqiq etishning muhimligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

A. Nurmonov va N.Mahmudovning "O'zbek tilshunosligi tarixi" kitobiga asoslanib o'zbek tilidagi jismoniy tarbiya va sportga oid leksik birliklar tarixini tadrijiy holda davrlarga ajratib tasniflashni maqsadga muvofiq deb bildik[1].

Jadval 1**Sportga oid leksik birliklar taraqqiyoti tarixiy davrlari**

1. Xalq og'zaki ijodi davri (yozma adabiyotlarga bo'lgan davr)
2. Arab istilosi davri (632-1258 y.y.)
3. Qoraxoniylar davri (999-1141y.y.)
4. Mo'g'ullar istilosi davri (1220-1368 y.y.)
5. Temuriylar davri (1370-1512y.y.)
6. Xonliklar davri (1512-1920y.y.)
7. Chor Rossiyasi va sobiq sho'rolar davri (1870-1991y.y.)

NATIJALAR

O'zbek xalq og'zaki ijodida, xususan, turkum dostonlarda sport sohasiga oid juda ko'p leksik birliklar ishlatilgan. Xalq dostonlarida oshiq ma'shuqiga yetishish uchun uning sportga doir shartlarni bajarib o'tgan. "Alpomish" dostonida Barchin tomonidan to'qson alpga qo'yilgan 4 shartni ifodalovchi *poygada birinchi kelish, yoy (kamon) tortish, ming qadamdan tanga pulni nishonga olish, kurash tushish* kabi birliklar jismoniy tarbiya va sportning qadimiy ekanini anglatadi. Ushbu shartlar har tomonlama zamonaviy ko'pkurash musobaqasini yodimizga soladi va hozirgi kunda ham sharhlash jarayonida jurnalistlar o'zi sharhlab turgan sport turining shartlari bilan tanishtirib yoki eslatib o'tadi.

Jadval 2.1**"Devonu lug'otit turk"da keltirilgan sportga oid leksik birliklar**

	Arab imlosi	Lotin imlosi	Ma'nosi	Hozirgi sport turida
1	قَلِيح	Qilich	qilich	Qilichbozlik
2	اَت	At	ot	ot sporti
3	اَق	Oq	o'q	kamonda o'q otish
4	اَمَك	Amag	nishon	kamonda o'q otish
5	اُرُق	Uruq	arqon	Atletika
6	اُرْكُن	Urkan	qayish	og'ir atletika
7	اَلْق	Uluq	qayiq	suv sporti

Aksincha, turkiy xalqlarning madaniyati mo'g'ullar madaniyatiga kuchli ta'sir etdi. O'zbek tilining ulkan madaniy merosi, muallifi noma'lum bo'lgan "At-tuhfatuz zakiyati fil-lug'atit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa", qisqacha "At-tuhfa") kitobining yaratilishi mo'g'ullar istilosi davriga to'g'ri kelgan. Asar muallifi arab tilshunosligini mukammal o'rgangan qomusiy olim bo'lgan. Muallif o'z asarini yozishda M.Koshg'ariy yo'lidan borishga intilgan. Ammo bu asarni yozish juda qiyin va katta hajmli bo'lgani sababli monografiya obyekti sifatida, asosan, qipchoq tili olingan. Muallif bu haqida shunday yozadi: "Men bu asarda qipchoq tili (xususiyatlari)ga asoslandim. Chunki eng ko'p qo'llanilgan til qipchoq tilidir. Turkman tilini bu ishda bayon qilmadim, faqat zarur bo'lganda ko'rsatdim...",[2]. Ushbu asarda muallif tomonidan tahlil qilingan so'zlar orasida sportga oid quyidagi leksik birliklarni uchratdik. Ular leksik-semantik jihatdan turkiy so'zlar bo'lishiga qaramasdan arab imlosi orqali berilgan va bizga eski turkiy yozuv vositasida yetib kelgan. Masalan: اَت - at - ot; دَقْمَق - doqmaq - to'qmoq; قَلْقَن - qalqan - qalqon; تَبِق - tobîq - chovgon o'yini to'pi; بَقْن - baqan - halqa; باشماق - bashmaq - oyoq kiyim; اَبَار - o'ar - egar; قَيْش - qajish - qayish; قِيلِيح - qilich - qilich; بۆرك - bork - qalpoq, bosh kiyim; بۇتۇن - butun - sog'lom; كۇرَاش - kurash-kurash; وَرَاجِي - kurrachi - kurashchi; قۇچاق - quchaq - belbog'; اُورْطَار - ortar - chodir; طَياق - tajaq - tayoq; جَالِيش - chapish - qilich tushish; بولاد - pulad - to'qmoq; اوماچ - omach - nishon; باشغۇت - boshg'ut - shog'irt; تۈپۈك - töpuk - par (lanka) tepish o'yini.

Yuqorida qayd etilgan mazkur sohaga oid leksemalarning aksariyati bugungi o'zbek adabiy tili muloqotida va soha sharhlarida qo'llaniladi, ayrim sportga oid birliklarni o'zbek tili harbiy

TILSHUNOSLIK

terminologiyasida ham uchramiz[3]. Biz ularning hozirgi kundagi qaysi sport turiga aloqador ekanligini aniqlab, jadval asosida taqdim etdik (2.2-jadvalga qarang).

Jadval 2.2

“At-tuhfa”da keltirilgan sportga oid leksik birliklar

	Arab imlosi	Lotin imlosi	Ma'nosi	Hozirgi sport turida
1	تَرْيَقْ	Tartiq	tortiq, yutuq	Mukofot
2	جَلِشْ	Chalish	kurash	Kurash
3	كَمَا	kama (kami)	kema	suv sporti
4	سَوْنُكُوْا	so'ngo'a	nayza	nayza ulotirish
5	يَارِشْ	Jarish	chopish, poyga	yugurish sporti
6	يَبْ	Jip	arqon, ip	Atletika
7	تَكْرَكْ	to'grak	halqa	Gimnastika

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligi tarixida temuriylar davrining ahamiyati beqiyosligi bilan ajralib turadi. A. Temurning hukumronligi davrida ilm-fan, madaniyat, san'at gullab-yashnadi va turkiy (o'zbek) tilining fors tili bilan teng darajaga chiqishiga shart-sharoit yaratib berdi. Bu davrga kelib sport turlarining shakllanishi soha leksik birliklarining umumiste'moldagi so'zlardan alohida tama sifatida ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda milliy-ma'naviy merosimizga aylangan “Temur tuzuklari” asarining o'zida jismoniy tarbiya va sportga sharhlarida qo'llanuvchi yuzga yaqin leksik birliklar mavjud. Alohida qayd etish kerak o'z davrida ushbu leksik birliklar harbiy soha tarkibida qo'llanilgan. Masalan: سَوَارِي - **suvoriy**; سِيْپِي - **sipohi**; كَامَار - **kamar**; خَايَلَا - **xayla**; جَاوِيْر - **chodir**; سَوُوتْ - **sovut**[4].

Bu tarixiy davrga oid yana bir asar Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” (Ikki til muhokamasi) asaridir. Asarning 2014 yilgi yangi nashrida ko'plab jismoniy tarbiya va sportga daxldor so'zlar va terminlarni uchratish mumkin. Masalan: **egar, to'qum, qamchi, jorlig', dastor, qolpoq, baydaq, boyliq, bisot, dav, dilovar, kushti, kushtigir, madh, mot, paykor, pahlavon, piyoda, pil, shatranj, shoh, ruh, chavgon, g'olib, ilmi badan, ko'ngil tarbiyasi** kabilar.

Mutafakkir Alisher Navoiy *jismoniy tarbiya* atamasi o'rnida *ko'ngil tarbiyasi* atamasini ham ishlatadi: “*Ko'ngil badan mulkining podshosidir. Ko'ngilning salomatligi – badanning ham salomatligidir*”, – deya e'tirof etgan[5]. Bundan tashqari, u o'zining “Hayrat ul-abror” va “G'aroyib us-sig'ar” dostonlarida shaxmat sport sohasi haqidagi fikr va mulohazalarni bayon etib, shaxmatning juda qadimiy va ulkan aql-idrok talab qiladigan sport turi ekani, nafis va jozibali, shu bilan bir qatorda murakkab o'yin ekanligini sharlab o'tganlar. Shoir ushbu sport atamalaridan asarlarida badiiy tasvir vositasi sifatida ham foydalangan: “*yurushda otlardek za'fi ta'rifidakim, muammo ichida otdek paydo emas...*” ya'ni “*yurgan paytda qaddi ot donasidek mag'rur deya ta'riflaysiz, ammo og'ir vaziyatda ot donasidek qaddi tik emas...*” deya ushbu baytni keltiradi.

Bu yurushda iki ulog'im bor,
Lek bormen **sipohi**liqda yayoq.

Iki **shatranj** otidek birisi
Ko'tara olmay o'z yeridin oyoq.

Chopsa **shatranj** xonasi xatidin.
Biri rangi qoradurur, biri oq.

Shoirning boshqa asarlarida ham shaxmat o'yiniga doir bunday misollarni uchrata aniqladik va zamonaviy shaxmat turi bilan bog'lash maqsadga muvofiq deb bildik: *shatranj – shaxmat (o'yini); ot – ot figurasi; bisot – shaxmat taxtasi; baydaq – piyoda; shoh – shoh; pil – fil figurasi; rux – ruh figurasi*[6].

Olib qo'ysa **baydaq**ni shoh yonida,
Yana **pil** qo'ysa **rux** ayvonida.

Aningdekki tifi istabon inbisot,
Chu **shatranj** o'ynarg'a yoysa **bisot**.

Agarchi arsa xoli qolsa mutlaq,
Tutarmi anda **shoh** o'rini **baydaq**.

M.Sulaymonov Navoiy va uning davrigacha bo'lgan shoirlar ijodiga bag'ishlangan maqolasida shaxmat-shatranj atamaları haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Muallifning ta'kidlashicha, Navoiy davrida shaxmatning *kichik* va *katta* turlari mavjud bo'lgan. *Kichik* tur hozirda mavjud shaxmat o'yini bo'lsa, *katta* tur shaxmatda ikki yon tomonga uchtdan olti (3+3=6) katak qo'shilib, shaxmat taxtasi bir yuz o'n ikkita katakdan iborat bo'lgan. Ushbu shaxmat tarkibida qo'shimcha **jirafa**, **ayiq**, **tuya** kabi dona (figura)lar mavjud bo'lgan. Shaxmat taxtasiga qarab o'ynash nomi **hozirona**, qaramay o'ynash **g'oyibona** deb nomlangan[7].

Ona tilimizda sportga doir dastlabki lug'atlardan biri – 1961 yilda R.Ismoilov hamda M.Norkinlar tomonidan yaratilgan "Ruscha-o'zbekcha fizkultura va sport terminlari lug'ati" dunyo yuzini ko'rdi.

Mazkur lug'atlarning asosiy vazifasi soha terminologiyasidagi mavjud tartibsizliklarni, izohtalab leksik birliklarni lingvistik tamoyillar asosida tartibga solish, izohlash hamda sohaga oid har bir leksik birlikning o'z o'rni, mavqei va ahamiyatini ko'rsatib berish edi. Mavjud muammolar yuzasidan R.Ismoilov va M.Norkinlar o'z lug'atlarida quyidagilarni yozadi: "Fizkultura va sport terminlaridagi noaniqliklar ba'zan jismoniy tarbiya o'qituvchilari, trenerlar, sudyalari, instruktorlar va matbuot xodimlari uchun bir qancha qiyinchiliklar tug'dirmoqda, anglashilmovchiliklar va xatolarning yuz berishiga sabab bo'lmoqda". Demak, sportga oid izohli lug'atlarni o'z vaqtida yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Ingliz va o'zbek tili sportga oid birliklarning taraqqiyot bosqichlari ikki tilda ham davr va undagi tuzum bilan chambarchas bog'liqligi kuzatildi. Farqli jihati shundaki, o'zbek tilida sportga oid birliklarning qo'llanishi uzoq davrga borib taqalsada, mustaqillikdan keyingina xalqaro termin sifatida qo'llanila boshlandi. Birlashgan Qirollikda, qirol va ayonlar uchun (shaxmat, ot poygasi, lochin ovi, gimnastika) alohida sport turlari, oddiy xalq uchun (futbol, kriket) sport turlari mavjud bo'lgan. Shu bois soha terminlari ingliz tili va Britaniya madaniyatida necha asrlardirki, muhim o'rin tutadi. Hozirda davlatda yuzlab turdagi sport o'yinlari taraqqiyoti yo'lida istiqbolli islohotlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исмолов Р., Норкин М. Русча-ўзбекча жисмоний тарбия ва спорт терминлари луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1961.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (3 жилдлик). – Т.: Фан, 1960–1963.
3. Муаллифи номаълум. Ат-тўхфат уз-закийя фил-луғотит-туркийя. – Т.: Фан, 1990.
4. Исмоилов У. Мустақиллик даври ўзбек тилида терминологиянинг ривожланиши. // Филология масалалари, 2018, №2.
5. Темур тузуклари (Форсча матндан Алихонтўра Соғуний ва Ҳамидулла Кароматовлар таржимаси). – Тошкент, 2011. – 186 б.
6. Сулаймонов М. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. –Н.: Наманган, 2011.–106 б.
7. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 8- том. Фарҳод ва Ширин.-Тошкент: Фан, 1993.-123 б.